

OTA OBRAZINING QIYOSIY TAHLILI: ULUG'BEK HAMDAMNING "OTA" ROMANI VA UILLIAM SHEKSPIRNING "QIROL LIR" ASARLARI MISOLIDA

*Farg'ona davlat universiteti
Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi
Ibrohimova Marjona*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ota obrazi badiiy tafakkur mahsuli sifatida qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasi asosida chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida "Ota" romani hamda "QiroL Lir" tragediyasi tanlab olingan. Ushbu asarlarda ota obrazi turli tarixiy-madaniy kontekstda shakllangan bo'lib, ularda aks etgan otalik fenomeni antropologik, psixologik va axloqiy mezonlar asosida o'rganiladi.

Tahlil jarayonida struktur-semantik, qiyosiy-tipologik yondashuvlardan foydalanildi. Natijada ota obrazining evolyutsiyasi, uning ichki drammatizmi, ijtimoiy funksiyasi va farzand bilan munosabatidagi konfliktlar tizimi aniqlab berildi. Har ikki asarda ota siymosi insoniy qadriyatlar inqirozi, mehr va mas'uliyat, shuningdek, yolg'izlik va kechikkan anglash motivlari bilan uzviy bog'liqligi isbotlandi.

Kalit so'zlar: ota obrazi, qiyosiy adabiyotshunoslik, psixologik realizm, tragediya, ichki konflikt, arxetip, badiiy talqin, ruhiy iztirob, avlodlar munosabati, insoniy zaiflik, dramatik konflikt, individual va universal obrazlar.

KIRISH

Qiyosiy adabiyotshunoslik turli millat va davr adabiyotlarida umumiy va o'ziga xos jihatlarni aniqlashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy yo'nalishdir. Ayniqsa, universal obrazlar — ota, ona, qahramon, hukmdor kabi arxetiplar orqali insoniyatning umumiy ma'naviy tajribasini tahlil qilish imkoniyati kengayadi.

O'zbek adabiyotida ota obrazi asrlar davomida donishmandlik, qat'iyat va oilaning tayanch ustuni sifatida tasvirlanadi. Ulug'bek Xamdami ning "Ota" romani o'zbek zamonaviy adabiyotida realizmning yorqin namunasi sifatida e'tirof etiladi. U ota obrazini yangi mazmun va shaklda namoyon qildi. U ota obrazini ideallashtirmadi, balki uni zamon va shaxs ruhiyati bilan bog'liq holda real tasvirladi. Unda ota obrazi oddiy insonning ichki olami, uning ma'naviy iztiroblari orqali ochiladi. Quyidagi jumlar Po'latning ichki holatini ochib bergan. "Uning nigohlarida doimo qandaydir og'ir o'ylar soyasi sezilib turar, go'yo u atrofdagi oddiy hayotdan ko'ra o'z ichki olamida yashayotgandek tuyulardi. U ko'p gapirmas, lekin sukuti bilan ko'p narsani anglatardi. Har bir harakati, har bir qarashida ichki tortinish, ikkilanish va o'z-o'zi bilan kurash aks etardi. Ba'zan u uzoqqa tikilib qolardi — bu

nigohda armon ham, izlanish ham, tushunarsiz sog‘inch ham mujassam edi."¹ Adib asarlarida ota ideal obraz emas, xatoga yo‘l qo‘yadigan, ichki iztiroblari va sukut orqali gapiradigan shaxs sifatida gavdalanadi. Bosh qahramonning ismi ham uning harakteridan kelib chiqib qo‘yilgan. Po‘lat tashqi jihatdan kuchli, vazmin va bardoshli inson sifatida ko‘rinadi.

Uilliam Shekspirning “Qirol Lir” tragediyasi esa jahon dramaturgiyasining cho‘qqilaridan biri bo‘lib, unda ota obrazi hokimiyat, g‘urur va insoniy zaifliklar bilan uyg‘un holda talqin etilgan.

Mazkur ikki asarni qiyosan o‘rganish orqali ota obrazining ikki xil — realistik va tragik modelini tahlil qilish, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash ilmiy ahamiyatga ega.²

Ota obrazi jahon adabiyotida arxetip darajasiga ko‘tarilgan timsollardan biridir. U hokimiyat, himoya, mehr va tartib ramzi sifatida talqin etiladi.

Ota romanida bu arxetip individuallashtiriladi. Ya‘ni, ota obrazida umumiylikdan ko‘ra shaxsiylik ustun. U ideal emas — balki xatolarga yo‘l qo‘yuvchi, hayot zarbalari ostida ezilgan, ammo baribir oilasiga sodiq qolgan inson sifatida gavdalanadi. "Qirol Lir" asarida esa arxetip monumental xarakter kasb etadi. Lir nafaqat ota, balki davlat timsoli sifatida ham chiqadi. Bu esa obrazni ko‘p qatlamli va ramziy qiladi. Shekspir tragediyasida esa konflikt tashqi voqealar orqali kuchaytiriladi. Lirning xatosi — mehrni noto‘g‘ri talqin qilishidir. U so‘zga ishonadi, ammo mohiyatni anglamaydi. Lirning o‘limi bilan fojia yakunlanadi. Shekspir asarlarida fojia klassik shaklda, ya‘ni o‘lim yuz beradi va keskin dramatik yakun bikan tugaydi. Ulug‘bek Xamdamda fojia — bu ichki yemirilish. Ota tirik, hayot davom etmoqda, lekin uning ruhiy olamida inqiroz yuz bergan. Bu zamonaviy inson fojiasidir.

Mazkur tadqiqotda "Ota" va "Qiril Lir" asarlaridagi ota obrazini qiyosiy adabiyotshunoslik yondashuvi asosida tahlil qilishda bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi.

Avvalo, qiyosiy-tipologik metod orqali har ikki asardagi ota obrazining umumiy va farqli jihatlari aniqlanib, ularning arxetipik va individual xususiyatlari solishtirildi. Bu metod ota obrazining universal (umuminsoniy) va milliy (madaniy) qatlamlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, struktur-semantik tahlil metodi yordamida matn ichidagi obrazlar tizimi, konflikt tuzilishi hamda ota obrazining badiiy vazifasi o‘rganildi. Bu yondashuv orqali asarlardagi ichki va tashqi konfliktlarning qurilishi tahlil qilindi.

Tadqiqotda psixologik tahlil metodi ham qo‘llanildi. U ota obrazining ichki kechinmalari, ruhiy iztirobi va ongdagi o‘zgarishlarini ochib berishga xizmat qildi.

¹Ulug‘bek Xamdam. Ota. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.

²Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

Ayniqsa, Ulug‘bek Xamdam asarida ichki monolog va sukutdagi drammatizm, Uilliam Shakspir tragediyasida esa fojiviy ong evolyutsiyasi shu metod orqali yoritildi.

Xulosa qilib aytadiganda qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ikki asarda ham ota obrazi turli badiiy uslub va tarixiy sharoitlarda tasvirlangan bo‘lsa-da, ularning mohiyatida umumiylik mavjud. Har ikki asarda ota siymosi mehr, mas‘uliyat va insoniy zaifliklar bilan bog‘liq holda ochiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Ulug‘bek Xamdam. Ota. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
- 2.William Shakespeare. King Lear. – London: Penguin Classics, 2005.
- 3.Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
- 4.Karimov N. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2016.

